

Tizimda davlat tili, ma'naviy-ma'rifiy ishlar, yoshlar masalalari va kasaba uyushmalari faoliyati yuzasidan sayyor seminar o'z ishini yakunladi

// 13.06.2025

<https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/tizimda-davlat-tili-ma-naviy-ma-rifiy-ishlar-yoshlar-masalal>



"O'zkimyosanoat" AJ tizimida davlat tili, ma'naviy-ma'rifiy ishlar, yoshlar masalalari va kasaba uyushmalari faoliyati yuzasidan sayyor seminar o'z ishini yakunladi.

Seminarning ikkinchi kunida ishtirokchilarga "Qo'ng'irotda soda zavodi" MCHJ QKda ishlab chiqarish, xotin-qizlar va yoshlar masalalari bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar hisoboti taqdim etildi.



Shuningdek, "Milliyligimiz-o'zligimiz" shiori ostida qoraqalpoq madaniyatini aks ettiruvchi ko'rgazma va madaniy tadbir tashkil etildi. So'ngra ishtirokchilar Nukus shahridagi Savitskiy muzeyiga tashrif buyurishdi.



"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati